

**O'ZBEK XALQINIMG KELIB CHIQISH MASALASI**

*Abdunazarova Aziza Ilhom qizi,  
GulDU, „Psixologiya va ijtiomoiy fanlar fakulteti  
4-kurs talabasi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamda o'zbek xalqining kelib chiqish masalasi hamda turli xil tarixchi olimlarning o'zbek xalqining kelib chiqishi xaqida turlicha fikirlari va qarashlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Panturkizim, panironizm, sog'diy, turk xoqonligi, diniy konsepsiya panislomizm, Nux payg'ambar, so'nggi bronza davri, oriylar, etnik qatlamlar.

Dastlab sobiq sovet hokimiysi davrida milliy respublikalarni tashkil etish jarayoni ketayotgan kezlarda o'zbek xalqining kelib chiqish masalasi faqat turk etnosi bilan bog'liq holda o'rganilib fanda "panturkizm" atamasi paydo bo'ldi. Etnik tarix va millat tarixining har birini olganda ularning boshlang'ich va yakuniy nuqtasi bor. Masalan mana shu ilmiy konsepsiya asosida o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasi sifatida dastlab turk xoqonligi davri qabul qilingan. Bu ta'limot zamirida "O'rta Osiyo" aholisi azaldan turklar bo'lib buyuk Turon so'ng Turkiston bo'lib ketgan" degan g'oya yotadi. Ular o'zbek xalqining turk ildizini turkiy bo'limgan etnoslar bilan aralashi natijasida tashkil topganligini inobatga olmaydilar. Keyinchalik O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgan kundan boshlab o'zbek davlatchiligi masalasi kun tartibigi qo'yildi. O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi O'zbekiston tarixining ajralmas tarkibiy qismi, uning bosh masalasi bo'lib qoldi. Mustaqil O'zbekiston davlati oldida turgan bunday o'ta muhim muamolarni chuqur anglab yetgan Birinchi prezidentimiz Islom Karimov 1998-yilda bir guruh tarixchi va olimlar bilan suhbat uyushtirib, ular oldiga „O'zbek xalqi va uning davlatchiligi” muamolari ustida ilmiy izlanishlar olib borish masalasini qo'ydi. Pezidentimiz Islom Karimov aytganidek, „mustaqil fikrlaydigan olimlarimiz bo'lmasa, o'z davlatimiz xalqimiz, mamlakatimiz tarixini o'zimiz tiklamasak, o'zimiz xolisona yozmasak uni boshqalar boshqacha qilib yozadi. Yozish bilan cheklansa mayliku-ya bizni, o'sib kelayotgan avlodni hatto olimlarmizni ham o'z yo'rig'iga solishga harakat qiladi”<sup>1</sup> O'zbek xalqining kelib chiqishi haqida o'zbek tarixchi va olimlari turlicha fikir va qarashlarni ilgari surmoqdalar.

Xozirgi kunda o'zbek xalqi yanada qadimiy ya'ni so'nggi bronza davri bilan belgilanmoqda<sup>2</sup>. Bunday qarashlarning ilmiy asosda o'zbeklarning o'q tomiri bosh

<sup>1</sup> Islom Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. VII jild.T.: „O'zbekiston nashryoti” 1999-152-bet.

<sup>2</sup> Ahmadali Asqarov – "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" 4-5 betlar

ildizi ikki tilda so'zlashuvchi etnik qatlamlar (sog'diy va turkiy) qorushuvi natijsida ekanligi va ularning ilk bor aralasha boshlagan nuqtasi so'nggi bronza davridan boshlanganligi hisobga olingan. Sobiq sovet davri tarixiy lingvistik tadqiqotlari va uning ta'sirida bo'lgan tarix fanida O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari tili masalasida, ularni eroniy tilli xalq sifatida talqin qilindi. Chunki "Avesto" va "Veda" kabi eng qadimgi yozma manbalar tili Ovropa xalqlarining qadimiy tillarining tub aholisining barchasi mazkur yozma manbalar tillaridan kelib chiqqan xolda eronzabon deb qabul qilingan. Ular orasida shundaylar ham borki hozir ham uchrab turadi ular o'zbek xalqining kelib chiqishini Nux payg'ambarning o'g'li Yofasdan Yofasning o'g'li Tur yoki Turkdan boshlaydilar. Natijada uning aks sadosi sifatida "panironizm" ta'limoti paydo boladi.

Bunga ko'ra "bu zaminaning tubjoy aholisi eroniy tilli xalq bo'lib bu yurtga turklar keyinchalik kelgan" g'ayriilmiy konsepsiya paydo bo'ldi. Eronshunos olimlar Xind-Ovropa nazariyasidan kelib chiqib O'rta Osiyodan to Baykalgacha bo'lgan mintaqalarda eroniy til muxiti hukumron degan asosiz qarashni ilmiy jamoatchilik ongiga singdirdi.

O'sha kezlarda bu murakkab masala yechimiga islom aqidaparastlari ham aralashib „milliy etnoslar yo'q faqat islom millati bor, xalqlarni tiliga qarab emas, balki diniga qarab millatinini belgilamoq keraak“ degan diniy konsepsiyalarning paydo bo'ldi. Bunday qarash fanda „panislomizm“ nomini oldi. Xalqimiz tarixiga bo'lgan yana bir qarashlarda: "Miloddan oldingi II va I – ming yilliklarda O'rta Osiyoda ( shu jumladan O'zbekistonda ) hindyevropa xalqlarining ajdodlari oriy xalqi yashagan, milodiy VI asrga qadar bu yurtlarda turkiy xalqning (o'zbeklarning) izi ham bo'lмаган degan qarash ham mavjud. Shuning uchun miloddan oldingi II va I – ming yilliklarda O'rta Osiyoda yashagan turkiy qavmlar Sharqiy Eron tili lahjasida so'zlashgan xalq sifatida tanishtirilmoqda" ( O'rol Nosirov "O'zbeklar shajerasi" ). Jahon ilm-fani ibtidoiy odam paydo bo'lgan va rivojlanish davrini boshdan kechirgan azaliy maskan O'rta Osiyo bo'lganligini tan olgan . O'zbekiston esa O'rta Osiyoning qoq markazida joylashganligi uchun ham ibtidoiy odamning paydo bo'lishida azaliy Vatan bo'lganiga hech kim e'tiroz bildira olmaydi. Tarixchi olimlar esa turkiylar ( bu o'rinda o'zbeklar nazarda tutiladi ) ning azaliy vatani deya Dashti Qipchoq va Buyuk Turk cho'li ( hozirgi Qozoqiston yerlari ) ni ko'rsatadilar. Bundan ko'zlangan maqsad o'zbeklarning ajdodlarini O'zbekiston uchun „kelgindi“ deb da'vo qilishi, qadim – qadimdan turkiy xalqlar yashagan hozirgi O'zbekiston hududini eroniylarga , ularning ajdodlari bo'l mish oriylargaga azaliy Vatan sifatida qoldirishdir . Bundan tashqari, mafkuraviy ganimlar „ Tojik zamini hozirgi o'zbeklarning haqiqiy beshigi va vatani bo'ldi, bu yerda yashab tojik xalqining barcha boyliklari, madaniyati, erishgan yutuqlaridan foydalanib kelmoqda“ shuningdek „ o'zbeklar turkiylashgan tojik“ degan qarashlar o'z tarixchilarimizga tegishli.

Afsuski tarixiy ma'lumotlardan bexabar yoki tor doiradagi manbalarga tayangan ayrim mualiflar o'zbek, tojik va boshqa O'rta Osiyo xalqlarini faqat o'z qobig'da paydo bo'lган, degan g'ayrilmiy fikrlarni targ'ib qilib, millatchilik tuyg'ulariga ta'sir qilmoqdalar. Mintaqada mustaqil davlatlar yuzaga kelgan murakkab bir vaqtida mazkur soxta fikrlar halol, qalbi pok xalq ommasini chalg'itib, fojiali voqealarning tug'ilishiga sabab bo'layotganligini tarix tajribasi ko'rsatmoqda<sup>3</sup>. O'rta osiyo xalqlarining kelib chiqishi haqidagi milliy avtoxtonizm konsepsiysi ilmiy- metodologik jihatdan asosli bo'lsada ammo uning ayrim tomonlari jiddiy tahlil va qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab qiladi . Masalan, o'zbek xalqi turkiy ildizining O'rta Osiyoda ilk bor paydo bo'lishi yoki turklarning faqat ko'chmanchi xalq sifatida ta'riflash masalasi Zamon va makon masalasi, qadimgi xalqlarning tabiiy-geografik sharoitga ekalogik vaziyatga moslashib xo'jalik yuritish an'analari hisobga olinmagan. Shuning uchun fanda ba'zi bir anglashilmovchiliklar paydo bo'ldiki, bunga ko'ra, O'rta Osyoning turkiy tili qabilalalari " kelgindi ", qadimiy xalqga nisbatan esa "tubjoy" aholi deb qarash tasavvur paydo bo'ldi. Natijada aslida ham shundaymi degan savol tug'uladi Yoq unday emas. Yuqoridagi har xil konsepsiyalarni qaysi biri tog'rilingini aniqlashimiz uchun bir tomonlama yondashish kerak emas.

Bunday noilmiy konsepsiyalarning paydo bo'lishi o'z davrida shu muamo yo'nalishiga bog'liq fanlar rivojlanish darajasining zaifligidan dalolat beradi . Darxaqiqat O'rta Osiyo xalqlari etnogenizni va etnik tarixi masalalariga daxldor etnologiya, arxeologiya ,toponimika, tarixiy lingvistika kabi fan tarmoqlari o'sha vaqtarda hali rivojlanmagan edi. Etnogenez va etnik tarix murakkab muamo bolib , bu masalada milliy ehtroslarga berilmaslikni qat'iy talab qiladi. Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimovning: „ Modomiki o'z tarixini bilgan , undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan , biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz , xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur va olimlarning tarix sohasida olib borilayotgan izlanishlarida ana shu fikr, ana shu maqsad bolmasa ularning sariq chaqalik ahamiyati yoq " – degan so'zlarining ma'nosi ham shunda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.Ahmadali Asqarov - "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" 4-5 betlar
- 2.Karim Shoniyozov- " O'zbek xalqining shakillanish jarayoni " 9-10 betlar
- 3.Iso Jabborov – " O'zbeklar " 10 –bet.
- 4.O'rol Nosirov - „O'zbeklar shajarasi" 8 bet.

<sup>3</sup> Iso Jabborov "O'zbeklar" 10-bet